

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**



**PEDAGOGIK MENEJMENT
FANINING O'QUV DASTURI
(1-kurs)**

Bilim sohasi: 100000 – Ta'lim

Ta'lim sohasi: 110000 – Ta'lim

**Magistratura
Mutaxassisligi:** 70110101 - Pedagogika nazariyasi va tarixi
(faoliyat turlari bo'yicha)

Jizzax – 2022

1

Fan/Modul kodi 351PMT04	O`quv yili 2022-2023	Semestr I	Kreditlar 4																					
Fan/Modul turi Tanlov fan.	Ta`lim tili O`zbek		Haftadagi dars soatlari 4																					
Pedagogik menejment	Hami- masi	Jami auditoriya	Ma`ruza																					
I-semestr	120	60	Amaliy																					
Jami	120	60	Seminar																					
<p>1.</p> <table border="1"> <thead> <tr> <th>Pedagogik menejment</th> <th>Hami- masi</th> <th>Jami auditoriya</th> <th>Ma`ruza</th> <th>Amaliy</th> <th>Seminar</th> <th>Mustaqil ta`lim</th> </tr> </thead> <tbody> <tr> <td>I-semestr</td> <td>120</td> <td>60</td> <td>30</td> <td>30</td> <td>-</td> <td>60</td> </tr> <tr> <td>Jami</td> <td>120</td> <td>60</td> <td>30</td> <td>30</td> <td></td> <td>60</td> </tr> </tbody> </table>				Pedagogik menejment	Hami- masi	Jami auditoriya	Ma`ruza	Amaliy	Seminar	Mustaqil ta`lim	I-semestr	120	60	30	30	-	60	Jami	120	60	30	30		60
Pedagogik menejment	Hami- masi	Jami auditoriya	Ma`ruza	Amaliy	Seminar	Mustaqil ta`lim																		
I-semestr	120	60	30	30	-	60																		
Jami	120	60	30	30		60																		
<p>2.</p> <p>I. Fanning mazmuni - Fanni o`qitishning maqsadi – talabalarni pedagogik menejmentga oid bilim, ko`nikma va malakalar bilan qurollantirish. Fanning vazifasi – pedagogik menejmentning qonuniyatlari, tamoyillari, metod va usullarini aniqlash, tahlil etish va ulardan amaliyotda foydalanishga o`rgatishdan iborat. ASOSIY NAZARIY QISM (MA`RUZA MASHG`ULOTLARI) II.I. Fanning tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-mavzu. Pedagogik menejment fanining predmeti, vazifalari va metodlari. Pedagogik menejment nazariyalarning rivojlanish bosqichlari (4 soat) Pedagogik menejment tushunchasi. Pedagogik menejmentning mohiyati va shakllanishi. Pedagogik menejmentning predmeti, maqsad va vazifalari. Pedagogik menejmentning ilmiy-tadqiqot metodlari. 2-mavzu. Pedagogik menejmentning tizimli xususiyatlari. (2 soat) Pedagogik menejmentga oid nazariyalar. Pedagogik nazariyalarning rivojlanish bosqichlari. 3-mavzu. Ta`lim muassasini boshqarishning umumiy asoslari. (4 soat) Tizim, pedagogik tizim va didaktik tizim tushunchalari. Pedagogik boshqaruvning tizimli tavsifi. 4-mavzu. Ta`lim muassasasi pedagogik tizim va ilmiy boshqaruv ob`yekti sifatida. (2 soat) Pedagogik tizimning tarkibiy qismlari. Pedagogik menejmentda boshqaruv modellari. 5-mavzu. Ta`lim muassasasiga rahbarlik qilishning boshqaruv madaniyati. (4 soat) Ta`lim muassasasini boshqarish tamoyillari. Boshqaruvda motivatsiya va rag`batning o`rni. 6-mavzu. Ta`lim muassasasi ichki boshqaruv funksiyalari. (2 soat)</p>																								

Boshqaruvga oid zamonaviy yondashuvlar.Kvalimetriya metodi asosida ta'lim-tarbiya sifatini boshqarish.

7-mavzu. Ijtimoiy institutlarning ta'lim tizimini boshqarishdagi o'zaro hamkorligi.(4 soat)

Boshqaruv jarayonida ta'lim muasasi va mahalla institutining hamkorligi, boshqaruv jarayonida nodavlat va notijorat tashkilotlar bilan aloqalarni yo'lga qo'yish.

8-mavzu.Ta'lim muasasi xodimlarini malakasini oshirish shakllari handa ularni attestatsiyadan o'tkazish. (2 soat)

Ta'lim muassasidagi metodik ishlar pedagogic madaniyatni oshirish omili sifatida. ta'lim muassasida metodik ishlarni tashkil etishning asosiy shakllari, pedagogik hodimlarni attestatsiyadan o'tkazish.

9-mavzu.Ta'lim muassasida inovasion jarayonlar.(4 soat)

Inovasiya ta'lim muassasasi menejmenti samaradorligining muhim sharti.Ta'lim muassasasi inovasion faoliyatini tashkil etish mezonlari.Ta'lim muassasasi inovasion faoliyatini tashxis etish.

10-mavzu. Ta'lim tizimida marketing. (2 soat)

Ta'lim sohasidagi marketing-mutaxassis kadrlar tayyorlashga bo'lgan talab va ehtiyojni qondirishga qaratilgan faoliyat ekanligi, ta'lim xizmatlari.Marketing turlari, ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirish mazmuni

III.Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada har bir akadem guruha alohida o'tiladi. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tiladi, «Keys-stadi» texnologiyasi ishlatiladi, Keyslar mazmuni o'qituvchi tomonidan belgilanadi. Ko'rgazmali materiallar va axborotlar multimedia qurilmalari yordamida uzatiladi.

Amaliy mashg'ulotda yangi pedagogik texnologiyalar yoki interaktiv usullardan foydalanish uchun imkoniyatlar katta bo'ladi. O'qituvchi darsga kirib tashkiliy ishlarni o'tkazadi, auditoriyani darsga tayyorgarligi yozish va o'cherish vositalarining mavjudligi hamda o'quvchilarning davomati aniqlanadi. Amaliy mashg'ulot darslarida savol-javoblar, diskussiyalar tashkil qilinadi, faol ishtirok etgan talabalar rag'batlantiradi.

Amaliy mashg'ulotda ko'proq talabalar guruhini bir nechta kichik guruhlarga ajratib o'qitishning aqliy hujum, bahs-munozara, suhbat metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu metodlar talabalarni mavzu yuzasidan ko'proq mustaqil fikr yuritishga, o'z fikrini bayon etishga undaydi. Darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirib, diqqatlarini jamlashga o'rgatadi. Bundan tashqari amaliy mashg'ulot so'ngida o'qituvchi har bir talabaning faoliyatini togri va xolisona baholashga erdinishi zarur.

	<p>2. www.edu.uz 3. www.google.uz 4. www.gov.uz</p>
9.	Pedagogik menejment fanining o'quv dasturi Jizzax davlat pedagogika universiteti Kengashining 202__yil “__” __dagi __-sonli Kengash qarori bilan tasdiqlangan.
10.	Fan/modul uchun ma'sullar: Rahmatova F Pedagogika ta'limi nazariyasi kafedrası mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)dots
11.	Taqrizchilar: To'raqulova I.X A.Qodiriy nomidagi JDPU Pedagogika va psixologiya fakulteti dekani, pedagogika fanlari nomzodi ,dotsent Abrorxonova K Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'lim kafedrası mudiri p.f.f.d(PhD)dotsent

<p>8.</p>	<p>nazoratdagi o'zlashtirishi 100 ballik tizimda 50 ball bilan baholanadi va yakuniy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to'plagan talabalar fanni o'zlashtirgan hisoblanadi.</p> <p>VIII. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati</p> <p>1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. — T.: O'zbekiston, 1992. 2. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi qonuni. — T.: 2020 Asosiy adabiyotlar</p> <p>1. Djuraev R.X., Turg'unov S.T. Ta'lim menejmenti. — T.: Voris, 2006. 2. Sharifxo'jaev M., Abdullaev Yo. Menejment. Darslik. — T.: O'qituvchi, 2001. 3. Sharifxo'jaev M., Abdullaev Yo. Menejment: 100 savol va javob. — T.: Mehnat, 2000. 4. Vixanskiy O.S., Naumov A.I. Menedjment: Uchebnik — M.: Ekonomit, 2006.</p> <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <p>1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. // Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. — T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. — 92 b. 2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag'ishlangan majlisdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi// Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11 3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. "O'zbekiston" 2016. 4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob halqimiz bilan birga qo'ramiz. "O'zbekiston" 2017 5. Innovatsionniy menedjment: Uchebnik / Pod. red. Gorfinkelya V. Ya — M.: Vuzovskiy uchebnik, 2006. 6. Yegorshin A. P. Upravlenie personalom: Ucheb. dlya vuzov 3-e izd. — Nijniy Novgorod.: NIMB, 2001. 7. Peregodov L.V., Saidov M.X. Oliy ta'lim menejmenti va iqtisodiyoti. — T.: Moliya, 2002. 8. Ishmuxamedov R.J., Abduqodirov A.A., Pardaev A.X. Direktorning ish kitobi (amaliy tavsiyalar). — T.: 2007.</p> <p>Internet saytlari:</p> <p>1. www.zivonet.uz.</p>
-----------	---

<p>4.</p>	<p>Shuningdek, baholarni e'lon qilib faol o'quvchilarning familiyalarini aytib rag'batlantirishi va aksincha passiv, nutqi rivojlanmagan yoki uyatchan talabalarga yengil tanbeh berishi ham muhim ahamiyatga ega.</p> <p>Amaliy mashg'ulot darslarini dastur bo'yicha sifatli o'tilishini talabalar bilimining o'z vaqtida adolatli va xolisona baholanishini fandan ma'ruza olib boruvchi o'qituvchi muntazam nazorat qilib borishi shart. Shuningdek amaliyot o'qituvchisi bilan dastur bajarilishi uchun amaliy darslarda nimalarga alohida e'tabor qaratilishi, ma'ruzada mavzularni qaysi qismlari kam yoki ko'proq yoritilgani va boshqa o'quv-uslubiy masalalarda maslahatlashib fikrlashib turishlari lozim.</p> <p>III. Amaliy mashg'uloti mavzulari</p> <p>1-mavzu: Pedagogik menejmentning metodologik masalalari. (2 soat)</p> <p>Reja:</p> <p>1. Pedagogik menejment haqida tushuncha. 2. Pedagogik menejmentning boshqa fanlar bilan aloqasi. 3. Pedagogik menejmentning metodologik masalalari</p> <p>2-mavzu: Boshqaruv faoliyatida motivatsiya. (2 soat)</p> <p>Reja:</p> <p>1. Motivatsiya haqida tushuncha. 2. Boshqaruv faoliyatida motivatsiya.</p> <p>3-mavzu: Ta'lim muassasasi pedagogik tizim va ilmiy boshqaruv ob'yekti sifatida. (2 soat)</p> <p>Reja:</p> <p>1. Pedagogik tizim haqida tushuncha. 2. Ta'lim muassasasi pedagogik tizimi. 3. Ta'lim muassasasi pedagogik tizim va ilmiy boshqaruv ob'yekti sifatida</p> <p>4-mavzu: Ta'lim menejmentning umumiy tamoyillari. (2 soat)</p> <p>Reja:</p> <p>1. Ta'lim menejmentning o'ziga xos tomonlari 2. Ta'lim menejmentning umumiy tamoyillari</p> <p>5-mavzu: Maqsad qo'yish va rejalashtirish pedagogik menejmentning vazifasi sifatida. (2 soat)</p> <p>Reja:</p> <p>1. Maqsad qo'yish pedagogik menejmentning vazifasi sifatida. 2. Rejalashtirish pedagogik menejmentning vazifasi sifatida.</p> <p>6-mavzu: Ta'lim muassasasi ichki nazorati. (2 soat)</p> <p>Reja:</p> <p>1. Boshqaruvga oid zamonaviy yondashuvlar</p>
-----------	--

<p>2. Ta'lim muassasasi ichki nazorati</p> <p>3. Ichki nazoratni amalga oshirish bosqichlari</p> <p>7-mavzu: Ta'lim muassasida inovatsion jarayonlar. (2 soat)</p> <p>Reja:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Innovatsiya ta'lim muassasasi menejmenti samaradorligining muhim sharti. 2. Ta'lim muassasasi inovatsion faoliyatini tashkil etish mezonlari 3. Ta'lim muassasasi inovatsion faoliyatini tashxis etish. <p>8-mavzu: Ta'lim muassasasi hodimlarining malakasini oshirish shakllari hamda ularni attestatsiyadan o'tkazish. (2 soat)</p> <p>Reja:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Ta'lim muassasasidagi metodik ishlar pedagogik madaniyatni oshirish omili sifatida 2. Ta'lim muassasasida metodik ishlarni tashkil etishning asosiy shakllari 3. Pedagogik hodimlarni attestatsiyadan o'tkazish <p>9-mavzu: Ta'lim menejmentning asosiy funksiyalari. (2 soat)</p> <p>Reja:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Ta'lim menejmentining asosiy tushunchalari 2. Boshqaruvda rahbar faoliyatining asosiy funksiyalari <p>10-mavzu: Kvalimetriya metodi asosida ta'lim-tarbiya sifatini boshqarish. (2 soat)</p> <p>Reja:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Kvalimetriya metodi haqida tushuncha 2. Kvalimetriya metodi asosida ta'lim-tarbiya sifatini boshqarish <p>11-mavzu: Pedagogik tizim tuzilishining tarkibiy qismlari. (2 soat)</p> <p>Reja:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Pedagogik tizim haqida tushuncha 2. Pedagogik tizim tuzilishining tarkibiy qismlari <p>12-mavzu: Ta'lim menejmentga doir zamonaviy yondashuvlar. (2 soat)</p> <p>Reja:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Pedagogik menejmentda boshqaruv modellari. 2. Ta'lim menejmentiga oid zamonaviy yondashuvlar 3. Ta'lim menejmentining o'ziga xos tomonlari <p>13-mavzu: Boshqaruv madaniyati. (2 soat)</p> <p>Reja:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Boshqaruv madaniyati haqida tushuncha 2. Boshqaruv madaniyatining asosiy tamoyillari <p>14-mavzu: Ta'lim muassasasi rahbar xodimlarining vazifalari, huquq</p>
--

<p>har bir guruh boshqalarning ishiga tuzatish kiritadi va oxirida o'zlariga qaytib keladi. Guruhlar o'z ishini tuzatishlar bilan takomillashtirgan holda taqdimot qilishadi.</p> <p>5) «Bumerang» usuli. Talaba bajargan ishini avval o'z kichik guruhida, keyin boshqa kichik guruhda muhokama qiladi, so'ng yana o'z guruhiga qaytib kelib umumlashtiradi. Oxirida guruhlar taqdimoti o'tkaziladi.</p> <p>6) «Rezyume» usuli. Kichik guruhlarda muammolar o'rganilib, tahlil qilinadi va xulosa yozma ifoda etiladi. Taqdimotda xulosa ko'rsatilmaydi, boshqa talabalarining taqdimotga nisbatan fikrlari hisobga olinib yangi xulosa shakllantiriladi va avvalgi yozma xulosa bilan taqqoslanadi.</p> <p>7) «Muammo» usuli. Dastlab muammoli videolayha ko'rsatiladi. Kichik guruhlar namoyish vaqtida muammolarni qayd qilib borishadi. Keyin ularning echimlarni o'zaro almashishadi va tuzatish kiritishadi. Oxirida muammo bo'yicha jamoaning xulosasi shakllantiriladi.</p> <p>8) «Labirint» usuli. O'qituvchi murakkab vaziyatni bayon qiladi va jamoa bo'lib undan chiqish yo'li topiladi. Keyin kichik guruhlarda boshqa muammoli vaziyatlar o'rganiladi va taqdimot o'tkaziladi.</p> <p>9) FSMU usuli. Talabadan o'z fikrini quyidagi tartibda ifodalash talab qilinadi: F - fikrini bayon qilish; S - fikriga sabab ko'rsatish; M - sababni asoslovchi misol keltirish; U - fikrini umumlashtirish.</p> <p>10) «Muloqot» usuli. Kichik guruhlarda alohida mavzular o'rganiladi va turli materiallar (video, foto, sxema, ilmiy dalillar) tayyorlanadi. Keyin kichik guruhlar o'rtasida muloqot bo'lib o'tadi. O'qituvchi kichik guruhlarining fikrlarini maqsadli yo'naltirib boradi va oxirida o'z munosabatini bildiradi.</p> <p>11) Kreditlarni olish uchun talablar.</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy nazorat, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p> <p>Joriy nazorat. Joriy nazorat semestr davomida seminar mashg'ulotlariga ajratilgan soatlar (jufflik) dan kelib chiqib umumiy 30 ball bilan baholanadi.</p> <p>Jami seminar mashg'ulotlari bo'yicha o'zlashtirish natijalari 100 ballik tizimda 30 ball bilan baholanadi.</p> <p>Oraliq nazoratlar. Oraliq nazoratlar semestr davomida ma'ruza mashg'ulotlari o'quv soatidan kelib chiqqan holda 1 marta o'tkaziladi. Oraliq nazorat 100 ballik tizimda 20 ball bilan baholanadi. Oraliq nazorat ishi tarkibida mustaqil ta'lim topshirig'i kiradi.</p> <p>Oraliq va joriy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to'plagan talabalarga yakuniy nazorat topshirishga ruxsat beriladi.</p> <p>Yakuniy nazorat</p> <p>Yakuniy nazorat yozma shaklida o'tkaziladi. Talabaning yakuniy</p>

6.

- **SWOT-tahlil.** Bu organayzer talabalarda tizimli fikrlash, taqqoslash, baholash, tahlil qilish, fikrni davom ettirish ko'nikmalarini rivojlantiradi. SWOT atamasi inglizcha so'zlarning qisqartmasi hisoblanadi: Strengths – ob'ektning kuchli jihatlari; Weakness – kuchsiz jihatlari; Opportunities – tashqi imkoniyatlari; Threats – tashqi xavf-xatarlari. Talaba yangi qatordan S, W, O, T harflarini yozib yoniga ob'ektning mos sifatlarini yozib chiqadi.

- **“Baliq skeleti” sxemasi.** Bu organayzer tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Baliq skeletining bosh qismiga – mavzu, yuqori qismiga – muammolar, pastki qismiga – tasdiqlovchi dalillar yoziladi.



- **Aqliy hujum usuli.** Bu usul dars mavzusiga oid savolga javob topish maqsadida g'oyalarni jamlash va saralash uchun qo'llaniladi. Har bir talaba o'zining shaxsiy g'oyalarni ilgari suradi. Bosqichlari – muammoli vaziyat paydo qilish; yechimni topish uchun g'oya, fikr berish; yechimlar taqdimotini eshitish; yechimlarni solishtirish va tanlash; xulosa qilish.

- **Esse.** Bu mavzu bo'yicha cheklangan hajmda yoziladigan insho hisoblanadi. Esse talaba o'quv materiali bo'yicha o'zining shaxsiy fikrini erkin ifoda etadi.

Interfaol o'qitish usullari (Activity)

Amaliy mashg'ulotlarda interfaol o'qitish usullari qo'llaniladi. Bu usullar talabalarda jamoada ishlash, kasbga oid mustaqil va tanqidiy fikrlash, muloqot madaniyati va xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantiradi. Quyida fan xususiyatlariga xos ba'zi usullar bayon etilgan.

2) **«Tushunchalar tahlili» usuli.** Talabalar tushunchalarni dastlab yakka tarzda va keyin jamoada muhokama qilishadi. O'qituvchi jamoaning fikrini yo'naltirib turadi va oxirida ekranga atamalarining izohini chiqaradi. Talabalar o'z fikrlarini taqqoslashadi, baholashadi va bilimlarini mustahkamlashadi.

3) **«Zinama-zina» usuli.** Talabalar mavzu bo'yicha yakka tarzda fikrini grafik ifoda etishadi, keyin guruhda muhokama etishadi. Guruhlar taqdimoti o'tkaziladi va grafik materiallar doskaga mantiqiy pog'onalar tarzida ilib boriladi.

4) **«Charxpalak» usuli.** Kichik guruhlar o'z tarqatma materiallaridagi vazifani bajarib, charxpalak aylanishi bo'ylab bir-biriga uzatishadi.

10

va majburiyatlari. (2 soat)

Reja:

1. Ta'lim muassasasi rahbar xodimlarining vazifalari
2. Ta'lim muassasasi rahbar xodimlarining huquqlari
3. Ta'lim muassasasi rahbar xodimlarining burchlari

15-mavzu: Ta'lim muassasasi ichki boshqaruvida pedagogik tahlil. (2 soat)

Reja:

1. Pedagogik tahlil haqida tushuncha
2. Ta'lim muassasasi ichki boshqaruvida pedagogik tahlil

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

Mustaqil ta'lim – muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan hamda o'quvchi tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishni, o'zlashtirish darajasini amalga oshiriladigan ta'lim shakllaridan bo'lib, o'qituvchi maslahati va tavsiyalari, bilimlar taqsimotiga tayyorgarligi asosida auditoriyadan tashqarida bajariladi.

Shuning uchun talabalar mustaqil ta'lim olishlarini rejalashtirish, tashkil qilish va buning uchun barcha zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, dars mashg'ulotlarida talabalarni o'qitish bilan bir qatorda ularni ko'proq o'qishga o'rgatish, bilim olish yo'llarini ko'rsatish, mustaqil ta'lim olish uchun yo'llanma berish oliy ta'lim muassasasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Talaba mustaqil ishi (TMI) – muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bir qismini talaba tomonidan fan o'qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o'zlashtirilishiga yo'naltirilgan tizimli faoliyatdir.

IV.1. Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Boshqaruv faoliyatining diagnostik xususiyatlari.
2. Boshqaruv faoliyatida vaqtdan unumli foydalanish shartlari.
3. Innovatsiyalar tasnifi va turlari.
4. Innovatsion va strategik menejmentning mazmuni.
5. Menejer shaxsi tipologiyasi.
6. Boshqaruv usullari.
7. Ta'lim muassasasi menejmentining davlat-jamoat boshqaruv tizimi.
8. Ta'lim muassasasi ichki nazorati.
9. Ta'lim muassasasida innovatsion jarayonlarni boshqarish.
10. Ta'lim muassasasi xodimlarining kasbiy-pedagogik madaniyatini oshirish shakllari hamda ularni attestatsiyadan o'tkazish.

7

- 11. Ta'lim muassasalarida ta'lim xizmatlarini tashkil etish yo'nalishlari va turlari.
- 12. Ta'lim tizimida marketing.
- 13. Ta'lim xizmatlari marketingi turlari.
- 14. Ta'lim tizimini moliyalash
- 15. Boshqaruv faoliyatida motivatsiya.

V. Ta'lim natijalari/Kasbiy kompetensiyalar.

- Fanni o'zlashtirish natijasida magistr:
- Boshqaruv faoliyati va uning diagnostik xususiyatlari haqidagi;
- Boshqaruv faoliyatida vaqtdan unumli foydalanish shartlari;
- Innovatsiyalar tasnifi va turlari.
- Innovatson va strategik menejmentning mazmuni.
- Menejer shaxsi tipologiyasi haqidagi *bilimga*;
- Boshqaruv uslublari haqida;
- Ta'lim muassasasi menejmentining davlat-jamoat boshqaruv tizimini o'rganish;
- Ta'lim muassasasi ichki nazorati haqida;
- Ta'lim muassasasida innovatsion jarayonlarni boshqarish;
- Ta'lim muassasasi xodimlarining kasbiy-pedagogik madaniyatini oshirish shakllari hamda ularni attestatsiyadan o'tkazish yuzasidan *ko'nikmaga*;
- Ta'lim muassasalarida ta'lim xizmatlarini tashkil etish yo'nalishlari va turlari;
- Ta'lim tizimida marketing;
- Ta'lim tizimini moliyalash;
- Boshqaruv faoliyatida motivatsiyaning o'imi yuzasidan *malakaga ega bo'lishlari kerak*.

V. Ta'lim natijalari/Kasbiy kompetensiyalar.

- Fanni o'zlashtirish natijasida magistr:
- Boshqaruv faoliyati va uning diagnostik xususiyatlari haqidagi;
- Boshqaruv faoliyatida vaqtdan unumli foydalanish shartlari;
- Innovatsiyalar tasnifi va turlari.
- Innovatson va strategik menejmentning mazmuni.
- Menejer shaxsi tipologiyasi haqidagi *bilimga*;
- Boshqaruv uslublari haqida;
- Ta'lim muassasasi menejmentining davlat-jamoat boshqaruv tizimini o'rganish;
- Ta'lim muassasasi ichki nazorati haqida;
- Ta'lim muassasasida innovatsion jarayonlarni boshqarish;
- Ta'lim muassasasi xodimlarining kasbiy-pedagogik madaniyatini oshirish

shakllari hamda ularni attestatsiyadan o'tkazish yuzasidan *ko'nikmaga*;

- Ta'lim muassasalarida ta'lim xizmatlarini tashkil etish yo'nalishlari va turlari;
- Ta'lim tizimida marketing;
- Ta'lim tizimini moliyalash;
- Boshqaruv faoliyatida motivatsiyaning o'imi yuzasidan *malakaga ega bo'lishlari kerak*.


VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari.

Grafik organayzerlar

Grafik organayzerlar ma'ruza, amaliy va mustaqil ta'lim mashg'ulotlarida talabalar o'quv materiallarini samarali o'zlashtirishlari uchun joriy etiladi. Quyida ularning ba'zilari keltirilgan.

1) BBB jadvali. Barcha ma'ruza darslarida qo'llaniladi. BBB usuli ("bilaman", "bilishni xohlayman", "bilib oldim") orqali talaba o'zini kuzatishi, o'qituvchi esa darsga baho berishi mumkin. Talaba dars boshida mavzu bo'yicha nimani bilishini (B1) va yana nimalarni bilishni xohlashini (B2) daftoriga yozib qo'yadi. Dars so'ngida nimalarni bilib olganligini (B3) qayd qilib qo'yadi.

2) Inset usuli. Bu usul matnni o'zlashtirishda qo'llaniladi. Talaba sahifa hoshiyasiga o'z belgilarini qo'yib ularga munosabat bildiradi. Masalan: "v" - zarur; "u" - xato; "+" - yangi; "!" - e'tibor qiling; "x" - ortiqcha; "s" - ko'chirish kerak; "?" - tushunarsiz va h.k.



3) Klaster sxemasi

Bu usul fikrni erkin bayon qilish uchun qo'llaniladi. Masalan, talaba o'tilgan mavzu bo'yicha klaster tuzishi mumkin. O'rtaqalit so'z, tarmoqlarga unga bog'liq boshqa atamalar yoziladi. Ular ham o'z navbatida tarmoqlarga ajralishi mumkin.

Venn diagrammasi O'rganilayotgan ob'ektlarni taqqoslash, o'xshash va farqli jihatlarni topish, tahlil qilish uchun qo'llaniladi. Diagrammadagi doirachalar alohida ob'ektni, kesishmalar esa ularning o'xshash va bog'liq jihatlarni bildiradi. Talabdan ob'ektlarning alohida (1-3), o'zaro bog'liq (4-6) va umumiy (7) jihatlarni yozma ifodalab berish talab etiladi.